



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

DOI: 10.67227

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 6

2026

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONI TILIDA QO‘LLANILGAN FORSCHA NISBIY SIFATLAR HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Soyipov Sunatulla

Jizzax davlat pedagogika instituti, dotsent

Annotatsiya

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida qo‘llanilgan forscha nisbiy sifatlar aniqlangan va ularning doston tilini sinonimik jihatdan boyitganligi, ifoda imkoniyatini kengaytirganligi, vazn va qofiya, shakl va ma’no mutanosibligini ta’minlaganligi asardan iqtiboslar keltirish yo‘li bilan ilmiy tahlil etilgan va ular xususida umumlashma xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: nisbiy sifatlar, tilshunoslik, sinonim, ekvivalent, iqtibos, vazn, qofiya, ma’no, ilmiy, tavsif, tasanif, tahlil.

НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ПЕРСИДСКИХ ОТНОСИТЕЛЬНЫХ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ, УПОТРЕБЛЁННЫХ В ЯЗЫКЕ ПОЭМЫ «ФАРХОД И ШИРИН»

Сойипов Сунатулла

Джизакский государственный педагогический институт, доцент

Аннотация

В данной статье выявлены персидские относительные прилагательные, используемые в языке поэмы Алишера Навои “Фархад и Ширин,” и научно проанализированы их синонимическое обогащение языка поэмы, расширение возможностей выражения, обеспечение баланса метра и рифмы, формы и значения путем цитирования произведения, и сделаны обобщенные выводы по ним.

Ключевые слова: относительные прилагательные, лингвистика, синоним, эквивалент, цитата, метр, рифма, значение, научный, описание, классификация, анализ.

SOME OBSERVATIONS ON PERSIAN RELATIVE ADJECTIVES USED IN THE LANGUAGE OF THE EPIC “FARHOD AND SHIRIN”

Soyipov Sunatulla

Jizzakh State Pedagogical Institute, Associate Professor

Abstract

This article identifies the Persian relative adjectives used in the language of Alisher Navoi's "Farhad and Shirin" poem and scientifically analyzes their synonymous enrichment of the poem's language, expansion of expression possibilities, ensuring the balance of meter and rhyme, form and meaning through citation of the work, and draws generalized conclusions about them.

Keywords: relative adjectives, linguistics, synonym, equivalent, quotation, meter, rhyme, meaning, scientific, description, classification, analysis.

Ota-bobolarimizdan bizga meros sifatida yetib kelgan yozma manbalar tilini o‘rganish natijasida mazkur tilda aloqa qiluvchi xalqning boshqa xalqlar bilan lisoniy aloqa munosabatlarini ham aniqlab olish mumkin. Bu esa hozirgi kun tilshunoslikning eng muhim sohalaridan biri sanaladi.

Leksika so‘zi ma’nosioga to‘xtaladigan bo‘lsak, u tilning boshqa sohalariga nisbatan turli ichki va tashqi ta’sirlarni tezda o‘zida mujassam etadi. Bu esa o‘z navbatida, o‘sha xalqning madaniy, siyosiy, iqtisodiy hayotidagi o‘zgarish va o‘shini belgilashda asos bo‘la oladi.

“Har bir adabiy tilning hozirgi holatini to‘g‘ri belgilash, uning taraqqiyot yo‘llarini aniqlashda til tarixi usullarini puxta o‘rganish, ulardagi ayrim grammatik kategoriyalarni hozirgi til elementlari bilan chog‘ishtirib tekshirish o‘zbek tilshunosligi va turkologiyasining muhim masalalaridan biridir” [1;6].

Shunday ekan, o‘zbek adabiy tilining asoschilaridan biri, buyuk shoir va mutafakkir hamda davlat arbobi Alisher Navoiyning durdona asarlarini o‘qir ekanmiz, unda o‘zbek tili so‘zlari bilan bir qatorda, ko‘plab forscha, arabcha, mo‘g‘ulcha hamda uyg‘urcha so‘zlar ham uchraydi. Shu sababli ham Alisher Navoiy va uning salaflari tomonidan turkiyda bitilgan buyuk-buyuk asarlar tilini mukammal darajada bilishimiz uchun ular tilida qo‘llanilgan o‘zlashma so‘zlarning barchasini ham leksik ham grammatik nuqtai nazardan puxta va chuqur o‘rgangan bo‘lishimiz lozim.

Darhaqiqat, Alisher Navoiyning asarlari tilida bir guruh o‘zlashma so‘zlar ham borki, ular eski

o'zbek adabiy tili yozma manbalarida, shuningdek, ayrim turkiy tillarda ham uchrovchi so'zlardir. Mazkur so'zlarning ma'lum qismini fe'l, ot va uning turli xil shakllari tashkil etadi. Jumladan, Alisher Navoiy ikki tilli shoir sifatida turkiy va forsiy tilda buyuk asarlar yaratgan tilshunos olim, buyuk mutafakkir hamdir.

Shuningdek, Alisher Navoiyning turkiyda yozilgan va joriy alifboga asl holicha o'girilgan ayrim asarlarini o'qir ekanmiz, uning tilidagi o'zlashmalar ko'proq arab va fors tillariga oid ilmiy, siyosiy hamda ma'naviy so'zlar, iboralar hamda qo'shimchalarni tashkil etadi. Shoir asosan ularni o'z asarlari tilida o'zbek tili so'zlariga sinonim yoki ekvivalent tarzida qo'llaganki, shu sababli ham uning asarlari tili rang-barang, so'zga boy, jozibador, chiroyli, sodda, mukammal hamda o'sha davr xalq tiliga yaqin hisoblanadi.

Alisher Navoiy asarlari tiliga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning asarlari tilida arab tili so'zlari bilan bir qatorda, fors tili sifat so'z turkumiga oid so'zlar ham ancha salmoqli miqdorni tashkil etadi. Shularni inobatga olib, uning asarlari tilini shoirning o'zlashma so'zlarni qo'llash mahorati nuqtai nazaridan tahlilga tortar ekanmiz, unda qo'llanilgan forscha asliy sifatlariga nisbatan nisbiy sifatlar ancha ko'pchilikni tashkil etishi aniqlandi. Shu sababli ham biz, mazkur maqolamizni Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tilida qo'llanilgan forscha nisbiy sifatlar va ularning asar tilida ifodalagan leksik-semantik hamda grammatik ma'nolarini tilshunoslik nuqtai nazardan ilmiy tahlil, tavsif va tasnifini amalga oshirishga bag'ishladik.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tilida qo'llanilgan va ko'proq hozirgi o'zbek adabiy tili leksikonida muomalada bo'lgan "o'zakda ifoda etilgan narsa yoki xususiyatga ega emaslik kabi ma'nolarni ifoda etuvchi" [2;137] forscha "be" old qo'shimchasi vositasida yasalgan nisbiy sifatlar boshqa forscha sifat so'z turkumiga oid so'zlarga nisbatan ancha ko'p bo'lib, ular son jihatidan 50 dan ortiqni tashkil etadi. Shu sababli ham biz, ularning ilmiy tahlilini amalga oshirish maqsadida dostonidan "be-" old qo'shimchasi vositasida yasalgan forscha nisbiy sifatlar qatnashgan bir necha baytni misol tariqasida keltiramiz:

*Chopib xoroni beandoza haddin,
Otar toshi yo'nib ko'prak adaddin (228-bet).
Chamanda sarvbas ra'no shakardur,
Yo'q andin naf', chunkim besamardur (27-bet).
Va gar qilsa ibo tarhini bunyod,
G'azanfardin etar jayronga bedod (209-bet)[3;228, 27].*

Asardan iqtibos sifatida keltirilgan mazkur baytlarning har uchchalasida ham shoir tomonidan forscha "be-" old qo'shimchasi vositasida yasalgan nisbiy sifatlar qo'llanilgan bo'lib, ular odatdat fors tilida ot so'z turkumiga oid so'zlar oldidan sifat yasovchi mazkur qo'shimcha qo'shilishi natijasida yasaladi va nisbiy sifatlar hisoblanadi.

Ushbu "be-" old qo'shimchasi fors tilida "bi-" shaklida yoziladi va xuddi shunday talaffuz etiladi, lekin bu "bi-" old qo'shimchasi o'zbek tiliga talaffuz jihatidan biroz o'zgarishga yuz tutgan holda, ya'ni "be-" shaklida o'zlashgan. Shunday ekan, forscha "be-" old qo'shimchasi vositasida yasalgan va o'zbek adabiy tiliga o'zlashgan bunday so'zlarni hozirgi o'zbek adabiy tilida ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan: bebaxt, beqaror, bevafo, bebaqal, bedor va hokazo [4;223]. Ushbu forscha "be-" old qo'shimchasi hozirgi o'zbek adabiy tilida o'zbek tili ot so'z turkumiga mansub bo'lgan so'zlarga qo'shilib ham, ulardan sifat so'z turkumiga oid leksimalar yasamoqda va mazkur yasama so'zlar tilimizda faol muomalada qo'llanib kelinmoqda.

Shuningdek, yuqorida asardan iqtibos sifatida keltirilgan baytlarning birinchisiga ahamiyat qaratadigan bo'lsak, unda forscha "beandoza" so'zi qo'llanilgan bo'lib, mazkur so'z yasalishi nuqtai nazaridan ikki ma'noli marfemalarga bo'linadi. Shunday ekan, ushbu so'z tarkibidagi "be-" qo'shimcha marfema, "andoza" so'zi esa o'zak marfema hisoblanadi. Ushbu so'z tarkibidagi "andoza" so'zi o'zbek tiliga leksik jihatidan "o'lchov" kabi ma'noni ifodalovchi so'zdir. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, "andoza" so'zi so'z turkumi jihatidan ot bo'lib, unga "be-" old qo'shimchasi qo'shilishi natijasida yasalgan "beandoza" so'zi esa o'zbek tiliga "cheksiz", "o'lchovsiz", "mslsiz" kabi leksik ma'noni ifodalovchi so'z sifatida tarjima qilinadi. Shunday ekan, mazkur so'z dostonidan iqtibos sifatida keltirilgan baytda ham xuddi shunday ma'noni ifodalovchi so'z sifatida qo'llanilgan. Bizning bu boradagi fikrimizga ushbu bayt va uning tabdili mazmuni ham asos bo'la oladi.

Birinch bayt:

*Chopib xoroni beandoza haddin,
Otar toshi yo'nib ko'prak adaddin.*

Baytning tabdili mazmuni:

Toshlarni mslsiz darajada qo'porardi va ularni har tomonga otardi.

Ushbu baytga ahamiyat beradigan bo'lsak, "beandoza" so'zi so'z turkumi jihatidan nisbiy sifat, sintaktik nuqtai nazardan esa aniqlovchi vazifasida kelgan.

Iqtibos sifatida keltirilgan ushbu baytlarning ikkinchisida forscha "be-" old qo'shimchasi vositasida yasalgan nisbiy sifatlardan "besamar" so'zi qo'llanilgan bo'lib, bu so'z ham xuddi "beandoza" so'zi kabi "be-" va "samar" kabi o'zak va qo'shimcha marfemalarga bo'linadi. Mazkur nisbiy sifat tarkibidagi "samar" so'zi ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu so'z asli forscha bo'lib, o'zbek tiliga leksik jihatidan "meva", "natija" va "foйда" kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z sifatida tarjima qilinadi. Ushbu baytda mazkur so'z asar muallifi tomonidan uning birinchi ma'nosi bo'lmish, "meva" so'zi o'rnida qo'llanilgan va "besamar" shaklida "mevasiz" kabi ma'noni ifodalab kelmoqda.

Bu boradagi ushbu fikrimizga asos sifatida ikkinchi bayt va uning tabdili mazmunini keltirishimiz mumkin.

Ikkinchi bayt:

*Chamanda sarvbas **ra'no** shakardur,
Yo'q andin naf', chunkim **besamardur**.*

Uning tabdili mazmuni:

*Chamanzordagi sarv juda **chiroyli** bo'lishiga qaramasdan u **mevasiz** daraxtdir, shu sababli ham undan bizga hech qanday foyda yo'q.*

Biz mazkur baytning tabdili mazmunidan Alisher Navoiy dostonida forscha "samar" so'zidan sinonim sifatida ko'proq o'zbek tilidagi "meva" so'zi o'rnida istifoda etganligini ko'ramiz. Shunday ekan, mazkur forscha "samar" so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida ham faol muomalada bo'lgan o'zlashma so'zlar qatori qo'llanilib kelmoqda. Masalan: bu ishimiz **samara** bermadi; ushbu gapimiz **samarasiz** bo'ldi kabi.

Dostondan iqtibos sifatida keltirilgan navbatdagi baytda shoir "bedod" so'zini qo'llagan va bu so'z ham forscha nisbiy sifat bo'lib, xuddi shunday so'zlar singari "be" va "dod" kabi ma'noli bo'laklarga bo'linadi. Shuningdek, ushbu forscha so'z tarkibidagi o'zak marfema bo'lgan "dod" so'zining asl ma'nosiga ahamiyat beradigan bo'lsak, mazkur so'zning birinchi ma'nosi "sovg'a" (ot) va ikkinchi ma'nosi esa "bermoq" (fe'l) so'zidir.

Ushbu forscha "bedod" so'zi mazkur baytda o'z manosida emas, balki ko'chma ma'nosida kelib, "nohaq" yoki "noqununiy" kabi ma'noni ifodalovchi so'z o'rnida qo'llanilgan. Shuningdek, "bedod" so'zning ushbu baytda "nohaq" so'zi o'rnida qo'llanilganligini bayt va uning tabdili mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin.

Bayt:

*Va gar qilsa ibo tarhini bunyod,
G'azanfardin etar jayronga **bedod**.*

Ushbu baytning tadili:

*Agar u iboli bo'lishdan bosh tortsa, G'azanfardan jayronga **nohaq** ziyon yetadi.*

Bundan tashqari shoir mazkur asari tilida "be-" old qo'shimchasi vositasida yasalgan nisbiy sifatlardan tashqari, yana "forscha "-in" so'z yasovchi qo'shimchasi vositasida yasalgan o'zakda ifoda etilgan narsadan yasalganlik, hamjinslik kabi ma'nolarni ifodalovchi sifatlarni" [2;136] ni ham ko'plab qo'llaganki, ulardan doston tilining o'sha davr xalq tiliga yaqinligini ta'minlashda, shuningdek, uning ifoda hamda sinonimik imkoniyatlarini kengaytirishda va asar syujeti borasida ham ma'no tashishda o'rinli hamda unumli foydalangan.

Bundan tashqari yana bu borada shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tilini tilshunoslik nuqtai nazardan o'rganishimiz natijasiga ko'ra, dostonida forscha "-in" qo'shimcha vositasida yasalgan nisbiy sifatlardan 14 turi qo'llanilganligi ko'ramiz. Shunday ekan biz, ulardan bir nechtasini dostonidan iqtiboslar keltirish yo'li bilan ilmiy tahlilga tortamiz va mazkur nisbiy sifatlarning doston tilida ifodalagan leksik hamda grammatik ma'nolarini tilshunoslik nuqtai nazardan tadqiqini amalga oshiramiz va ular xususida ilmiy-nazariy xulosalar chiqaramiz.

Masalan:

*Savodi demakim, **mushkin** sahobi,
Bo'lub har qatra anda duri nobi (7-bet).
Boshida bo'lmasa **zarrin** livoyi,
Shabistong'a ketib solgay ziyoni (24-bet).
Ketur soqiy, manga birjomi **rangin**,
Ki tushmish g'am toshi ko'nglinga **sangin** (48-bet).
Hamul ohan gudozi **ohanin** chang,
Ravon qildi buyurg'on ishga ohang (49-bet) [3;7, 24, 48].*

Yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, asardan misol tariqasida keltirgan bir necha baytlardan birinchisi va uning tabdili mazmunini keltiramiz.

Birinchi bayt:

*Savodi demakim, **mushkin** sahobi,*

Bo’lub har qatra anda duri nobi.

Ushbu baytning tabdili mazmuni:

Mushk-anbar (hidi tarab turadigan) **hidli** sohibning bilimi shunchalik kuchli bo’lib, u kishidan har doim xuddi toza marvaridlarni olgan kabi bilim olish mumkin.

Mazkur bayt tabdili mazmuniga e’tibor qaratadigan bo’lsak, baytdagi “-in” qo’shimchasi vositasida yasalgan “mushkin” so’zi so’z turkimi jihatidan nisbiy sifat bo’lib, baytda “sohib” so’zining sifat-xususiyatini ifodalab kelib, gap bo’lagi nuqtai nazardan aniqlovchi vazifasida kelgan.

Ushbu forscha “mushkin” so’zining yasalishiga ahamiyat beradigan bo’lsak, mazkur so’z tarkibidagi “-in” qo’shimchasi fors tilida asosan ot so’z turkumiga mansub bo’lgan so’zlarga qo’shib, ulardan sifat so’z turkumiga oid so’zlar yasashda qo’llanishini ko’rdik. Shuningdek, dostonidan misol tariqasida keltirilgan iqtibosda ham mazkur “-in” qo’shimchasi “mushk” so’ziga qo’shib, undan “mushkin” shaklidagi, ya mushkdan yasalganlik yoki “mushkli” kabi ma’noni ifodalovchi nisbiy sifat yasalganligi ko’rinib turibdi [4; 136].

Navbatdagi baytda mazkur qo’shimcha vositasida yasalgan “zarrin” so’zi qo’llanilgan bo’lib, mazkur so’z ham “-in” qo’shimchasi vositasida yasalgan forscha nisbiy sifat bo’lib, u so’z ushbu baytda aniqlanib kelinayotgan predmetning nimadan yasalganligi va uning sifati haqida ma’lumot bergan. Ushbu “-in” qo’shimchaning bunday xususiyatga ega ekanligini ikkinchi bayt va uning tabdili mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin.

Bayt:

*Boshida bo’lmasa **zarrin** livoyi,*

Shabistong’a ketib solgay ziyoni.

Ushbu baytning tabdili mazmuni:

Boshida tilladan yasalgan (tillali) kiyimi bo’lmas ekan, u ibodatxonaga borib, u erdagilarga qanday ziyon etkazishi mumkin.

Shuningdek, dostonan misol tariqasida keltirilgan ushbu baytdagi “zarrin” so’zining asl kelib chiqish ma’nosiga to’xtaladigan bo’lsak, bu so’z forscha “zar” so’ziga “-in” so’z yasovchi qo’shimchaning qo’shish orqali yasalgan nisbiy sifatdir. Shunday ekan, “zar” so’zi leksik jihatdan “oltin” so’zi ma’nosini ifodalaydi [5;105] va unga “-in” so’z yasovchi qo’shimcha qo’shilishi natijasida yasalgan “zarrin” so’zi esa o’zakda anglashilgan jinsdan yasalganlikni ifodalab keluvchi [6;247] va leksik jihatdan “oltinli” yoki “oltin qo’shib yasalgan” kabi ma’noni anglatuvchi so’zdir. Hozirgi o’zbek adabiy tilida “oltinli”, “oltin qo’shib yasalgan” yoki “oltindan yasalgan” kabi so’z va iboralar o’rnida forscha “tilla” so’zi qo’llaniladi va bu so’z o’zbek tilida xuddi dostonan keltirilgan baytdagi kabi gap bo’lagi jihatidan aniqlovchi hamda so’z turkumi nuqtai nazaridan nisbiy sifat vazifasida kelgan.

Demak, o’zbek adabiy tilidagi “tilla” so’zi asli kelib chiqish nuqtai nazaridan sifat so’z turkumiga mansub so’z bo’lib, o’zbek tilida “oltin” qo’shib yasalgan har qanday predmet tilla (buyum) deb yuritiladi. Bu borada biz yana shuni ta’kidlab o’tishimiz joizki, oltin bu sof metal (99.99%) bo’lib, undan ma’lum miqdorda qo’shib yasalgan buyum esa tilladir. Ushbu baytning mazmuniga e’tibor qaratadigan bo’lsak, undagi “tilla” so’zi kiyim so’zi bilan sifatlovchi aniqlovchili so’z birikmasini tashkil etgan va kiyimning qanday predmetdan yasalganlik xususidagi belgisini ifodalab kelgan.

Dostonan misol tariqasida keltirilgan yuqoridagi baytlarning navbatdagsida esa “-in” qo’shimchasi vositasida yasalgan ikkita forscha nisbiy sifat qo’llanilgan bo’lib, ularning birinchisi “rangin” va ikkinchisi “sangin” so’zidir. Mazkur so’zlardan “rangin” “rangli”, “sangin” esa “og’ir, qiyn” kabi ma’noni ifodalovchi forscha sifat so’z turkumiga oid so’z hisoblanadi. Bulardan “rangin” so’zi mazkur baytda o’z leksik ma’nosida, ya’ni “rangli” so’zi o’rnida qo’llanilgan va “sangin” so’zi esa o’z leksik ma’nosida emas, balki ko’chma ma’nosida kelganligini ko’ramiz. Darhaqiqat, “sangin” so’zi yasalishiga e’tibor beradigan bo’lsak, yuqorida ta’kidlab o’tganimizdek, u “sang” so’ziga “-in” so’z yasovchi qo’shimcha qo’shilishidan yasalgan forscha nisbiy sifatdir.

Shunday ekan, “sang” so’zining lug’aviy ma’nosiga ahamiyat beradigan bo’lsak, mazkur so’z leksik jihatdan o’zbek tiliga “tosh”, so’zi ma’nosida tarjima qilinadi, unga so’z yasovchi qo’shimcha “-in” ning qo’shilishi natijasida yasalgan “sangin” so’zi esa, asli “toshli” kabi ma’noni ifodalasada, baytda o’zining fors tilidagi ko’chma ma’nosida kelib, “og’ir”, “bosiq” yoki “qiyn” kabi ma’noni ifodalovchi so’z sifatida qo’llanilganligini ko’ramiz [7;700]. “Sangin” so’zining baytda xuddi shunday ma’noni a’noni

ifodalash uchun qoʻllanilganligini ushbu bayt va uning tabdili mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin.

Bayt:

*Ketur soqiy, manga birjomi **rangin**,*

*Ki tushmish gʻam toshi koʻnglimga **sangin**.*

Baytning tabdili mazmuni:

*Ey soqiy menga bir **chiroyli rangli** qadah keltirgin, chunki mening koʻnglimga **ogʻir** bir gʻam toshi tushdi.*

Shundan koʻrinib turibdiki, “sangin” soʻzi aksariyat hollarda hozirgi fors tilida ham “ogʻir”, “vazmin” soʻzlari maʼnosini ifodalash uchun qoʻllaniladi [8;63]. Shunday ekan, Alisher Navoiy ham ushbu “sangin” (forscha nisbiy sifat) soʻzini oʻz asari tilida fors tilidagi maʼnosida qoʻllaganligini baytning tabdili mazmunidan ham koʻrishimiz mumkin.

Ushbu baytning birinchi misrasida qoʻllanilgan “rangin” soʻzi yuqorida taʼkidlab oʻtganimizdek, leksik jihatdan “rangli” kabi maʼnoni ifodalasada, baytda bu soʻz asar muallif tomonidan “chiroyli rangli (qadah)” kabi maʼnoni ifodalovchi oʻzbek tili qoʻshma sifatiga ekvivalent tarzida qoʻllanilgan. Shundan koʻrinib turibdiki, Alisher Navoiy oʻz asari tilida birgina “rangin” forscha soʻzni (nisbiy sifatni) qoʻllash orqali, bir necha oʻzbek tili leksimalarining maʼnosini ifodalashga erishgan va bunday soʻzlardan asosan dostonning ifoda imkoniyatini va uning syujeti izchilligini taminlashda istifoda etgan. Asar tilidagi bunday holat shoirning oʻzlashma soʻzlardan oʻrinli va unumli foydalanganligidan, shuningdek, ular hisobiga oʻzbek adabiy tilining sinonimik imkoniyatlari maʼlum darajada boyiganligidan darak beradi. Bu esa oʻz navbatida muallifning doston tilida oʻzlashma soʻzlarni oʻrinli qoʻllab, unga bir jahon maʼnoni mujassamlashtirish kabi mahoratini namoyon etadi. Shuning uchun ham Alisher Navoiyning barcha asarlari bayt va misralari shakl va mazmun, vazn va qofiya nuqtai nazaridan bir-biriga xos va oʻzaro mutanosib hisoblanadi.

Iqtibosning keyingi baytida shoir xuddi shunday forscha nijsbiy sifatlardan “ohanin” soʻzini qoʻllagan boʻlib, bu soʻz ham yuqorida tahlilga tortilgan boshqa xuddi shunday soʻzlar kabi ikki maʼnoli marfemaga, yaʼni “ohan (oʻzak marfema)” va “-in” (qoʻshimcha marfema) kabi soʻz yasovchi qoʻshimchaga boʻlinadi. Shuningdek, fors tilidagi “ohan” soʻzi leksik jihatidan hozirgi oʻzbek adabiy tilidagi “temir” soʻzi maʼnosiga mos keladi. “Ohan” soʻziga -in qoʻshimchasi qoʻshilishi natijasida yasalgan “ohanin” soʻzi esa oʻzbek tiliga “temirli” yoki “temirdan yasalgan” kabi maʼnolarni ifodalovchi soʻz va iboralar orqali tarjima qilinadi.

Ushbu soʻzni shoir dostonidan iqtibos sifatida keltirilgan baytda ham fors tilidagi maʼnosida qoʻllagan. Bu boradagi fikrimizga bayt va uning tabdili mazmuni va unda qoʻllanilgan “ohanin” soʻzining ifodalagan maʼnosi toʻliq asos boʻla oladi.

Bayt:

*Hamul ohan gudozi **ohanin** chang,*

Ravon qildi buyurgʻon ishga ohang.

Ushbu baytlarning tabdili mazmuni:

*Bajarilayotgan ishga oʻsha **temirli (temirdan yasalgan)** chang qaygʻuli ohang bagʻishladi.*

Baytning dabdili mazmunidan “ohanin” soʻzi soʻz turkumi jihatidan nisbiy sifat boʻlib, “chang” (cholgʻu asbobi) soʻzining nimadan yasalganlik kabi sifat xususiyatini ifodalab kelmoqda. Shundan koʻrinib turibdiki, baytda har ikkala (ohanin va chang) soʻz oʻzaro birikib, sifatlovchi aniqlovchili soʻz birikmasini tashkil etgan.

Mazkur maqolamizda Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilida qoʻllanilgan ayrim forscha nisbiy sifatlar asardan iqtiboslar keltirish yoʻli bilan leksik hamda grammatik nuqtai nazardan ilmiy tahlilga tortildi.

Shuningdek, yana doston tilini tadqiq etishimiz barobarida unda qoʻllanilgan forscha asliy sifatlar nisbiy sifatarga nisbatan bir muncha kamchilikni tashkil etishi va ular son jihatidan 165 taga yaqin ekanligi aniqlandi.

Shu bilan birgalikda Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” dostoni tilida koʻplab forscha nisbiy sifatlarini qoʻllab, ularni oʻzbek adabiy tiliga olib kirib, oʻzbek tilining sinonimik hamda ifoda imkoniyatlarini fors tili darajasigacha koʻtarganligi va bu bilan u oʻzbek adabiy tilida ham xuddixuddi shunday til jihatidan mukammal va rang-barang hamda jozibador boʻlgan buyuk asarlar yaratish va unda oʻzbek adabiy tili butun jozibasi va ifoda imkoniyati bilan namoyon boʻlishi mumkin ekanligini oʻsha davridayoq isbotlab bergani aniqlandi.

Bundan tashqari yana Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni tilini tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishimiz natijasida unda qoʻllanilgan ayrim forscha nisbiy sifatarning soni hamda asar

tilida ifodalagan leksik ma'nolari aniqlandi va ularni biz asos sifatida keltiramiz:

Rahnavard (3 marta) – chopqir, tez chopar; sho'rida (5 marta) - qizg'onchiq, ta'magir; shabxez (1 marta) – tetik; tafoxo'r (4 marfta) – maqtanchiq; reza (10 marta) – mayda; sarmast (7 marta) – mast; safo (12 marta) – tiniq, toza; farsuda (15 varta) -eski, chirik; oluda (21 marta) -buzuq, yomon; afkanda (10 marta) – tashlandiq; kirom (12 marta) – saxiy; parivash (14 marta) – chiroyli, pariga o'xshash; bodpo (3 marta) – chaqqon; devonavash (14 marta) – jinni, aqildan ozgan; raxshon (7 marta) – yarqiroq, yaltiroq; siyminbar (5 marta) – oq, oqrangli; ravon (10 marta) – tekis, silliq, yuradigan; xasta (19 marta) – kasal; begona (11 marta) – notanish; gulgun (20 marfta) – chiroyli; zafaroniy (12 marta) - sarg'ish; xazoniy (14 marta) – kuzgi; purmakr (5 marta) – makrli, yolg'on; gulrang (20 marta) – qizil; charxkirdor (3 marta) – aylana; dilxush (9 marta) – xursand; purnur (4 marta) – nurli; nihoniy (18 marta) – yashirin; noxush (18 marta) – yomon; dushvor (3 marta) – mashhur; behad (12 marta) – cheksiz, chegarasiz; bedarmon (10 marta) – davosiz; darron (7 marta) – vahshiy; parron (2 marta) – uchar; suxanvar (11 marta) – suzamon, gapga usta; diltang (6 marfta) – xafa; nopok (21 marta) – yomon.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мухторов З. Ражабова Н. Ўзбек тили тарихини янада чуқурроқ ўрганайлик. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент. 1960., -Б., 6.
2. Халилов Л. Форс тили. Ўқитувчи. Тошкент., -Б., 136, 137.
3. Эркинов А., Фаҳод ва Ширин., Ғафур Ғулом., Тошкеннт., -Б., 228, 27, 209, 7, 24, 48, 49.
4. Турсунов А., Мухторов Ш., Рахматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўзбекистон. Тошкент. -Б., 223.
5. Рустамов А, Каримов Қ., Умаров З. Форсча - ўзбекча луғат. Тошкент. Ўқитувчи. 1983. –Б., 105.
6. Abdusamatov M. Toshkent. Sharq. 2007. –В., 247.
7. Восканиян Г.А. Руско-персидский словарь. Москва. Русский язык. 1980. –С., 700.
8. Рубинчика Ю.А. Персидско-русский словарь. Москва. “Русский язык”. –С., 63.